

ZOMIN TUMANIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTISHRISH IMKONIYATLARI

Mirzaalimov D.D.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Zomin tumani qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, iqlim xususiyatlari va ularning ta'sir doirasidagi landshaftlarning tabiiy geografik va ekoturistik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqlim, turizm, tog', tekislik, tuproqlari, gidrologik sharoiti, iqlim, milliy bog' landshaft va landshaft komponentlari, optimallashtirish masalalari

Аннотация: В статье рассмотрено удобное географическое положение, природные ресурсы и климат Зоминского района. Характеристики и природно-географические и ландшафтные характеристики в пределах своей сферы влияния освещены аспекты экотуризма.

Ключевые слова: Климат, туризм, горы, равнины, почвы, гидрологические условия, климат, национальный парк, ландшафт и компоненты ландшафта, вопросы оптимизации.

Abstract: In the article, the convenient geographical location, natural resources, climate of Zomin district characteristics and natural geographical and landscape within their sphere of influence ecotourism aspects are highlighted.

Key words: Climate, tourism, mountain, plain, soil, hydrological conditions, climate, national park, landscape and landscape components, optimization issues

O'zbekistonning Jizzax viloyatida joylashgan Zomin tumani o'zining tabiiy go'zalligi va turizm hamda rekreatsion imkoniyatlari bilan mashhur. Mintaqadagi milliy tabiat bog'i mamlakatdagi qadimiy va alohida qo'riqlanadigan hududlardan biri hisoblanadi. Keng tog'li landshaftlarni o'z ichiga olgan milliy bog' tabiatni sevuvchilar uchun boshpana bo'lib, turli xil o'simlik va faunani taklif etadi. Toza havo va sokin

muhit hududni ekoturizm va dam olish uchun qulay maskanga aylantirgan. Zomin tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan (1962 yil 24 dekabrda Jizzax tumani bilan birlashtirilgan, 1964 yil 31 dekabrda qayta tuzilgan). Shimolda viloyatning Zarbdor tumani, g'arbda Baxmal va Jizzax tumanlari, sharqda va shimoli-sharqda Yangiobod tumani, janubi-sharqda Tojikiston respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 2,87 ming km². Aholisi 120 ming kishi (2001). Zomin tumanida 2 shahar va 11 ta qishloq fuqoralik yig'ini bor. Markazi - Zomin shahri.

Zomin tumaning shimoliy, markaziy va sharqiy qismi pastekslik bo'lib, janubiy g'arbi qismi qir, adir va tog'lardan iborat. Yer yuzasi shimoldan janubga ko'tarilib boradi. Iqlimi keskin kontental, yozi issiq, quruq, qishi biroz sovuq. Yanvarning o'rtacha harorati -1,5⁰, iyulniki +32⁰ ni tashkil qiladi. Yillik yog'in miqdori 350-360 mm. Vegetatsiya davri 240 kunni tashkil qiladi. Adir qismi qumtosh, qum, mergel, lyoslardan tuzilgan bo'lib, usti chaqirtoshlar bilan qoplangan. Jarlarda va yozda qurib qoladigan soylar hududda ko'p bo'lib, bahorda soylar to'lib oqadi. Shimol va markaziy adirlarning tuprog'i lyoss ustida hosil bo'lgan bo'z, och bo'z, tipik bo'z tuproqlardan, janubiy qismidagi adirlar gipsli och bo'z tuproqlardan tarkib topgan. Tekisliklarda bo'z, qo'ng'ir tuproq. Tuman hududidagi Zominsoy daryosi, Achchisoy, Peshag'orsoy, Uvolsoy, Turkman, Joloir, Xo'jamushkentsoydan sug'orishda foydalaniladi. Ekin ekilmaydigan yerlarda sho'ra, shuvoq, yantoq, kovrak, oqquray va boshqalar o'sadi.

1-jadval

Zomin tumani hududidagi ba'zi bir daryolarning suv sarfi

Daryo olaning	Suv harajatlari m ³ /sek												Y
Zomi													1
O'rik													0
Yeti													1

Zomin tumaning tog'li hududlari G'arbiy Turkiston tog'larining shimoliy yonbag'irida, Zominsuv daryosi havzasida, xushmanzara va xilma-xil vertikal landshaft mintaqalaridan tashkil topgan bo'lib, dengiz sathidan 1000 - 4030 metr balandliklarda joylashgan. Noyob va tipik landshaftlar bilan birga, archa o'rmonlari ekologik sistemalarning bir butunligi, bu hududda inson tomonidan kam, hatto o'zgartirilmagan tabiiy komplekslarning ko'pligi milliy bog'ni tashkil etishga asosiy sabab bo'ldi.

Jizzax viloyatining Zomin tumanida, ya'ni Samarqand shahridan 150 km sharq tomonda barpo etilgan muassasa, bu yerda rivojlangan tog' turizmi faqat O'zbekiston Respublikasi aholisinigina emas, balki xorij mamlakatlari tog' turizmi ixlosmandlarini ham jalb etganligi uchun ma'lum vaqtgacha Zomin xalqaro parki deb atalgan. Endilikda esa uning nomi qat'iy shakllangan bo'lib, «Zomin milliy bog'i» deb ataladi. Zomin milliy bog'i tasarrufiga Zomin tog'lari, Pomir va Oloy tog' sistemasi, jumladan, Turkiston tizma tog'lari g'arbiy qismining shimoliy tarmoqlari kiradi. Zomin tog'lari unchalik baland emas. Shimoliy qismi dengiz sathidan 1000 metr, janubiy qismi esa 4030 metrgacha baland. To'g'ri bu tog'larda na abadiy qorlar boru, na muzlik bor. Lekin shunga qaramay, uning beqiyos manzaralari kishida o'chmas taassurot qoldiradi.

Zominning iqlimi ham o'ziga xos va diqqatga sazovordir. Dengiz sathidan 1700 metrdan 3200 metrgacha balandlikda joylashgan bu hududning yozi yumshoq, qishi esa qorli. Bu uni turli xil tadbirlarni, jumladan, piyoda yurish, lager va chang'i sporti bilan shug'ullanadigan sayyohlar uchun yil bo'yi manzilga aylantiradi. Bundan tashqari, milliy bog'ning archa daraxtlariga boy o'rmonlari, toza va shifobaxsh havosi ko'plab turistlarni o'ziga jalb qiladi. Jizzax viloyatining Zomin tumanida, ya'ni Jizzax shahridan 105 km sharq tomonda barpo etilgan muassasa, bu yerda rivojlangan tog' turizmi faqat O'zbekiston Respublikasi aholisinigina emas, balki xorij mamlakatlari tog' turizmi ixlosmandlarini ham jalb etganligi uchun ma'lum vaqtgacha Zomin xalqaro parki deb atalgan. Endilikda esa uning nomi qat'iy shakllangan bo'lib, «Zomin milliy bog'i» deb ataladi. Hozirgi vaqtda, Zomin milliy bog'i, tabiiy, ijti-moiy-

iqtisodiy va rekreatsion xususiyatlariga ko`ra funktsional zonalarga ajratilgan yagona planlashtirilgan strukturadan iborat.

Bog` hududida qo`riqlanadigan zona, rekreatsiya uchun (faqat sayyohlik marshurtlar uchun) chegaralangan zona, intensiv rekreatsiya zona loyihalashtirilgan. Bu funktsional zonalar tog`-o`rmon regionini, tuproq suvini saqlash, xo`jalik va rekreatsion ahamiyatga ega bo`lgan yerlarga va faunani saqlash maqsadiga xizmat qiladi. Qo`riqlanadigan zona, loyiha rejasiga ko`ra 12,891 mingga shu jumladan; o`rmon-12433 ga, o`rmonzorlar (buta aralash, siyrak o`rmonlar – 4949ga). Bu zonaga, inson xo`jalik faoliyati ta`sirida o`zgarmagan yoki kam o`zgargan o`rta va baland tog`larning ilmiy va tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazardan qimmatli bo`lgan massivlari kiritilgan.

Rekreatsiya uchun chegaralangan zona yoki bufer zonasi, maydoni - 32666 ga. Bu zonada tabiiy landshaftlar cheklangan holda rekreatsiya uchun foydalanib, tuproqlarni va suvlarni himoya qiluvchi landshaftlarni muhofaza qilishdan iborat. Shu bilan bir vaqtda bu zona qo`riq-xonaga nisbatan bufer funktsiyasini bajaradi. Zona, o`rtacha baland tog`lardagi o`tloq - cho`l va o`rmon landshaftlarini hamda karst hodisasi kuchli rivojlangan maydonlarni o`z ichiga oladi.

Intensiv rekreatsiya zonasi, asosiy transport magistrali hisoblangan Zomin - Baxmal avtomobil yo`lining ikki tomonida, dengiz sathidan 2000 metrdan 3000 metrgacha balandlikda joylashgan hududlar. Bu yerda intensiv rekreatsiyaning hamma turlari hamda madaniy, meditsina, transport va boshqa xizmat qilish turlari to`plangan. Shuni aytish kerakki, Zomin tabiiy bog`i, ayniqsa, uning Supa platosining landshaft sharoitlari, dengiz sathidan 2200 - 2400 metr balandligi, yotiq reliefi, yer usti tuzilishi, fitontsidlarga boy sof havosi, yumshoq iqlimi, chiroyli o`rmon manzaralari va boshqalar tog` sporti markazi va qishki sportning hamma turlarini rivojlantirish va tashkil etish uchun juda qulaydir.

Zomin milliy qadriyatlarni saqlab kelaqolgan hudud sifatida mashhur, xususan, mahalliy urf-odatlar va oshxonasi, uning jozibasini yanada oshiradi. Sayyohlar hududning tarixiy diqqatga sazovor joylari va qishloq turmush tarzi bilan tanishar ekan,

asl o'zbek taomlaridan bahramand bo'lishlari mumkin. Mavsumiy festivallar va an'anaviy tadbirlar tashrif buyuruvchilar uchun madaniy tajribani yanada oshiradi. So'nggi yillarda Zominga tashrif buyuruvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratildi, bu mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun mintaqani o'rganishni osonlashtirdi. Tabiat go'zalligi, dam olish imkoniyatlari va madaniy meros uyg'unligi Zomini O'zbekistonning tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Tabiat bilan bog'lanish va milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishni istaganlar uchun juda mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alibekov L.A. – Landshaftlarni muhofaza qilish. – T.: «Fan» nashriyoti, 1985 y.
2. Yo'ldashev N., Ismatullayeva Z. Zomin tumani geografiyasi. – Zomin, 2012 y.
3. G'ulomov P.G'. Tabiat va inson. – T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980
4. G'o'dalov M.R., Yaxshiboyeva F. Suv resurslaridan rasional foydalanish (Zomin tumani misolida). – T., 2010 y.
5. [Xoldorova G.M., Mirzaalimov D.D.](#) Zomin milliy bog'i tabiiy resurslari O'zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish yo'llari Respublika ilmiy–amaliy konferensiya, 2023-yil 4-noyabr
6. [Xoldorova G.M., Mirzaalimov D.D.](#) Zomin tumani suv resurslarining landshaftlarga ta'siri., Journal of Geography and Natural Resources
DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-04-05-01>
7. Xoldorova G.M., Saparov S.S. Zomin milliy tabiat bog'i iqlimining o'ziga xos xususiyatlari Journal of Natural Science" №1(10) 2023 y. <https://natscience.jdpu.uz>